

Mamadaliyeva Gulnavozxon Dilshod qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: gulnavozhan@gmail.com

ERKIN XUSHVAQTOV DRAMALARIDA KELIN OBRAZI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek dramaturgiyasining yetuk vakili Erkin XushvaqtoV dramalaridagi kelin obrazi tahlilga olgan. Tahlil davomida obyekt sifatida dramaturgning "Chimildiq" va "Andishali kelinchak" asarlari olingan. Dramaturg o'z asarlarida kelin obrazining go'zal va betakror namunalarini yaratgan. Ushbu asarlar teatrga tomoshabinlarni qaytargan asarlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Boisi, ushbu sahna asarlari xalqonaligi va milliy urf-odatlar asosida qurilganligi bilan o'zining qiymatini haligacha yo'qotmagan. Asar qahramonlari hayotini yaxshi tomonga o'zgartirish, oila rishtalarini saqlab qolish uchun turli sinov va qiyinchiliklarni yengib baxtli hayotga qadam qo'yadilar. Zamonaviy dramaturgiyada kelin obrazi ularning ichki dunyosi, shaxsiy muammolari va ijtimoiy kurashlarini o'z ichiga olishga qaratilgan. Bu ikki asar komedik yo'nalishda yozilgan. Uning asosiy mazmunida jamiyat va undagi insoniy munosabatlar shuningdek, insonlarning o'zligini anglashi yo'lidagi kechinmalari komediya usulida tomoshabinlarga yetkazishga uringanligiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: kelinchak, chimildiq, folklor, qadryat, urf-odat, kuyov, qaynona, milliylik.

Мамадалиева – дочь Гульнавозхан Дильшад.

Докторант Наманганского государственного
университета

Электронная почта: gulnavozhan@gmail.com

ОБРАЗ НЕВЕСТЫ В ДРАМАХ СВОБОДНОГО КУШВАКТОВА

Аннотация: В данной статье анализируется образ невесты в пьесах Эркина Хушвактова, зрелого представителя узбекской драматургии. В ходе анализа в качестве объектов были взяты произведения драматурга «Чимилдик» и «Андишали келинчак». Драматург создал в своих произведениях прекрасные и неповторимые образцы образа невесты. Эти произведения имеют особое значение как произведения, вернувшие зрителя в театр. Именно поэтому эти сценические произведения не потеряли своей ценности благодаря популярности и национальным традициям. Герои спектакля преодолевают различные испытания и трудности, чтобы изменить свою жизнь к лучшему, сохранить семейные узы и войти в счастливую жизнь.

В современной драматургии образ невесты направлен на включение ее внутреннего мира, личных проблем и социальной борьбы. Эти два произведения написаны в комедийном направлении. В его основном содержании мы видим, что общество и человеческие отношения в нем, а также переживания людей на пути к самореализации пытались передать зрителю в комедийной форме.

Ключевые слова: невеста, чимильдык, фольклор, значение, традиция, жених, свекровь, национальность.

Mamadaliyeva is the daughter of Gulnavozkhan Dilshad

Doctoral student of Namangan State University

E-mail: gulnavozhan@gmail.com

THE IMAGE OF THE BRIDE IN THE DRAMAS OF FREE KUSHVAKTOV

Abstract: This article analyzes the image of the bride in the plays of Erkin Khushvaktov, a mature representative of Uzbek dramaturgy. During the analysis, the dramatist's works "Chimildiq" and "Andishali kelinchak" were taken as objects. The playwright created beautiful and unique examples of the image of the bride in his works. These works are of special importance as the works that brought the audience back to the theater. That's why these stage works have not lost their value due to their popularity and national traditions. The heroes of the work overcome various trials and difficulties to change their lives for the better, to save family ties, and enter a happy life. In modern dramaturgy, the image of the bride is aimed at including their inner world, personal problems and social struggles. These two works are written in a comedic direction. In its main content, we can see that society and human relations in it, as well as the experiences of people on the way to self-realization, were tried to be conveyed to the audience in a comedy way.

Key words: bride, chimildyk, folklore, value, tradition, groom, mother-in-law, nationality.

Kirish

Dramaturgiya insonga murojaat qilganligi, uning qalb sirlarini ochishga intilganligi, insonlardagi o'zaro munosabatlar mohiyatini anglashga uringanligi bilan boshqa janrlardan farq qiladi. Bugungi kunga qadar o'zbek dramaturgiyasi rivojiga o'zining o'lmas asarlari bilan va dramaturgik mahorati bilan hissa qo'shib kelayotgan ijodkorlardan biri dramaturg o'zbek adabiyotining iste'dodli yozuvchisi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Erkin Xushvaqtovdur. Ijodkor 1959-yil 5-mart kuni Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi Chambil qishlog'ida dunyoga keldi. Uning muallifligida „Azon ovozi“ (1991), „Chimildiq“ (1998), „Andishali kelinchak“ (2005), „Halollik tilab keldim“ (2009) pyesalar to'plamlari chop etildi. Erkin Xushvaqtoy asarlari bilan tanishar ekanmiz insonlardagi mehr-oqibat, jasorat, halollik kabi sifatlarni o'zida jam qilgan asar qahramonlarining boshidan o'tkazgan kechinmalari, hayotidagi voqealarni komedik ruhda tasvirlaganiga guvoh bo'lamiz. Dramaturg o'z asarlarida kelin obraziga alohida e'tibor qaratgan. Kelin siymosini asarning dastlabki sathidan tasvirlab, uni shaxs sifatida ijtimoiy maqomini ochib berish bosh maqsadi bo'lgan. Dramaturgning „Chimildiq“ va „Andishali kelinchak“ asarlarida kelinlar hayotiga asoslanadi, ularda kelinlar nuqtai nafari ko'proq ko'zga tashlanadi. Kelinlarning qalb kechinmalari va nozik psixologizm tasvirlari bilan ajralib turadi. Yuqorida nomi keltirilgan asarlar orqali dramaturg o'zbek jamiyatining ma'naviy muhiti bilan bo'lgan ziddiyatlari orasidagi aloqadorlikni anglash orqali shaxsiy va ijtimoiy hayot tasvirini mujassamlashtirishga intildi.

Adabiyotlar tahlili

So'nggi yillarda dramaturgiya shakl va mazmun tomonlari o'zgardi. Bunda yozilgan sahna asarlarining mavzu ko'lami va rejissorlik mahorati ortganligida ham ko'rishimiz mumkin. Xalq hayotidan olingan sahna asarlari, qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlash, ortiqcha bo'yoqlarsiz sodda tilda yozilgan asarlarning ko'payganligi dramaturgiyaning rivojiga o'z hissasini qo'shdi. Bu esa tomoshabinlarning qiziqishini ortirib teatrga bo'lgan talabni oshirdi. Ayniqsa, Erkin Xushvaqtoy ko'proq xala o'g'zaki ijodi materiallariga, folklor-etnografik mavzularga, milliy urf - odatlarimizda o'lib borayotgan udumlarga murojaat qildi. Uning O'zbekiston milliy teatrida birin-ketin sahanlashtirilgan „Chimildiq“, „Qalliq o'yin“, „Qirmizi olma“, „Andishali kelinchak“ kabi pyesalariga iloji boricha o'zbek xalqining azaldan yashab kelgan udumlari ruhini, mohiyatini singdirishga, ularni yangicha an'analar bilan boyitishga, yosh avlodning munosabatini oshirishga urinadi. [1]

Azal-azaldan o'zbek xalqining bosh mavzusi kelin obrazi haqida, uning asardagi ishtiroki orqali dramaturg ochib berishga uringan. Buni uddasidan ham chiqqan. Bu spektakl o'zga bir xonadanga kelin bo'lib tushgan yosh qizning taqdiri haqidadir. Masalan, „Andishali kelinchak“ asarining bosh qahramoni kelinchak - Olmaxon ismli qizning yangi oiladagi sinovlarga duch kelganligi va uni yengishga

uringanligi tasvirlanadi. Ya'ni qaynona o'g'li u aytgan qizni olmay, sevganiga uylanganligi uchun, kelin bilan o'chakishib qoladi. Kelinni tug'maslikda ayblab, turtkilaydi. Haydab yubormoqchi bo'ladi. O'zini ko'z ostiga olib qo'ygan qizga o'g'lini uylantirmoqchi bo'ladi. Ammo yosh kelin o'zining aql-farosati bilan oilasini saqlab qoladi. Qaynonasining ham mehr-u muhabbatini qozonadi. Bunda ham ko'rishimiz mumkin-ki, o'zbek xonadoniga kelin bo'lgandan so'ng kelinlar ma'lum bir ma'noda "uyning generali" qaynonalarning ko'nglidan joy olishga uringanligi, bu orqali oilasini, baxtini saqlab qolishga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

"Chimildiq" asari esa milliy an'analar, xalq urf-odatlarini o'zida jamlaganligi bilan tomoshabinlarni o'ziga jalb qiladi. Asar boshida bir-birini unchalik yoqtirmagan kelin kuyov, asarning oxirida bir-birlariga mehr qo'yadilar. Kelin turmush o'rtog'i qiyofasida hayot qiyinchiliklarini yenga oladigan erkakni sevib qoladi. Yuqoridagi nomi keltirigan dramatik asarlardagi o'zining xarakteri, go'zal jozibasi, quvnoqligi bilan asarning ruhini yanada ko'targan obrazlarga kelin obrazini misol qilib olishimiz mumkin. To'g'ri, qaysidir o'rinlarda bu obrazning qaysarligi, mag'rurligi, o'ziga bino qo'yganligi bilan tomoshabinning biroz norozilgiga sabab bo'lishi mumkin, lekin o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iyat buni yuvib ketadi. Dramaturg o'z asarlarida kelin obrazining mohiyatini va murakkab kechinmalarini iloji boricha real tasvirlashga intilgan. E. Xushvaqtov kelin tasvirini yaratishda badiiy unsurlar bilan bir qatorda obrazning ruhiyatini to'laqonli namoyon qilishda samarali vosita hisoblangan badiiy psixologizmdan mohirona foydalangan. Kelin va kuyov munosabati orqali o'z mulohazasini ilgari suradi.

Tahlillar va natijalar

San'atshunoslik fanlari doktori professor M. To'laxo'jayeva "Chimildiq" spektakli xalq an'analariga, urf-odat madaniyatiga xayrixoh va mehrli munosabati bilan diqqatni jalb qiladi. Spektakl jiddiy va ixcham. Rejissyorlarning e'tibori insoniy xarakterlarni ochishga qaratilgan. Yigit va qiz bir-birlarini tushunib yetadilar, so'ng bir-birlariga mehr qo'yadilar. [1]

Ko'rib chiqadigan bo'lsak, E.Xushvaqtov asarlarining bosh g'oyasi teatr sahnalarida milliy urf-odat, qadryatlarni tiklashga qaratilganligiga guvoh bo'lamiz. Ularning sahnadagi ko'rinishini esa, teatr, rejessyor va katyorlarning sahnadagi faoliyati davomida o'z aksini topadi. Dramaturg o'zi esa, asarlarida komediya unsurlaridan ko'ra, lirik-dramaturgik kechinmalar ustun deya ta'kidlaydi. U asar qahramonlarining taqdirini insoniy fojea sifatida baholaydi. "Chimildiq" asarida kuyov misolida, "Andishali kelinchak" asarida esa kelin misolida hayotda o'z o'rnini topish jarayoni jiddiy kechinmalarga boyligini ko'rsatadi. Bu ikki asar

komedik ruhda bo'lgani bilan, uning tag ma'nosida jamiyat va undagi insoniy munosabatlar, shaxslarning hayotda o'rnini topish, kimligini isbotlash kabi murakkab kechinmalarni komediya usulida tomoshabinlarga yetkazishga uringanligiga guvoh bo'lamiz. E. Xushvaqto'vning O'zbekiston milliy teatrida birin-ketin sahnalashtirilgan "Chimildiq", "Andishali kelinchak" kabi pesalariga iloji boricha o'zbek xalqining azaldan yashab kelgan udimlari ruhini, mohiyatini singdirishga, ularni yangicha an'analar bilan boyitishga, yosh avlodning munosabatini oshirishga urinadi. Ko'p o'rinlarda bunga erishadi ham.[3]

Erkin Xushvaqto'v dramalarini o'qish davomida shuni ko'rishimiz mumkinki, asarning asosiy qahramonlari dastlab asarning boshida bir-birlarini sinashadi yoki boshqalar tomonidan sinaladi. Har xil imtofondan o'tadilar va maqsadlariga erishishini ko'rishimiz mumkin. Yangi hayotga turli sinovlarni yengib qadam qo'yadilar. Ushbu asarlar orqali, necha ming yillar davomida an'ana bo'lib kelgan bobo va buvilarimiz tomonidan turmush qurishga ahd qilgan yoshlarni ham, beva bo'lib qolgan qariyalarni ham baxtli bo'lishlari uchun sinalgan usullari orqali kurashib kelganlarini ko'rishimiz mumkin. Buvilarimiz bosh bo'lgan va ularning mazmunli nasihatlarini asosida qurilgan nikohlar mustahkam bo'lishi va uning keying turmushga ta'siri o'z ifodasini topgan. Dramaturg milliy urf-odatlar orqali ushbu asarni bezagan va tomoshabinlar qiziqishini orttirgan.

Xulosa

Dramaturg tomonidan ma'lum bir g'oya asosida sahnalashtirish uchun asarning tug'ilishi, rivojlanishi uning o'ziga xos xususiyatlari, turlari, unga qo'yiladigan talablar dramaturg mahorati deya tushuniladi. [2] Ijodkor asarlarini o'qish davomida ko'rish mumkinki, hozirgi zamon yoshlari yuqoridagi nomi tilga olingan dramalarni o'qib yoki tomosha qilib bir-birini sinamay dog'da qolayotgan yoshlar uchun namuna bo'la oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, "Chimildiq" spektakli tomoshabinlarni teatrga qaytargan asar desak mubolag'a bo'lmaydi. Undagi kelin bilan kuyovning bir-birlarini tushunib mehr qo'yishlari orqali yangi hayotga qadam qo'yishlari, shu bilan birga, momolarning nasihatlaridan o'rin olganligi ham asarning qiymatini oshirgan. "Andishali kelinchak" asrida esa yosh kelin Olmaxonning boshida kechirganlari, hayot sinovlaridan o'ta olgani, baxti uchun kurashgani hozirgi yoshlar uchun o'rnak bo'la oladi. Shuningdek, dramaturg kelin obrazini yaratgan ekan, uning ruhiy holati va ichki kechinmalarini ifodalovchi tashqi qiyofasidagi o'zgarishlar hamda yuz ifodalarining har bir detallar vositasida obrazni o'quvchi tassavvurida to'laqonli jonlantira olgan. Ushbu ikki asari orqali milliylikni ifodalaganligi va yoshlarning yangi hayot boshlanishidagi turli sinovlardan o'ta olganligi bilan hozirgacha o'z qiymatini yo'qotmagan, o'lmas sahna asari yaratganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xushvaqtoy, E. (2009). Chimildiq. Gʻafur Gʻulom.
2. Ulugʻova, N. (2022). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. Advanced Sciences Index Factor. www.oriens.uz ISSN 2181-1784, 1087-1091.
3. Nosirov, D. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <http://oac.dsmi-qf.uz> – 2023. — Volume 4 Issue 3.